

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XORIJIY FILOLOGIYA

til • adabiyot • ta’lim

ilmiy–uslubiy jurnal

Samarqand

3(84)/ 2022

**Ministry of Higher and Secondary Special
Education of the Republic of Uzbekistan**

SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

FOREIGN PHILOLOGY

Language • Literature • Education

Scientific-methodology journal

Samarkand



ZEBUNNISOBEGIM LIRIKASIDA YETAKCHI TIMSOLLAR

*Karimova Safiya Rasulovna,
SamDCHTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Kalit soʻzlar: *adabiy janr, nazm, tashbeh, majoziy ishq, haqiqiy ishq, ilohiy ishq, komil inson, oshiq, maʼshuqa, raqib, ishqiy sheʼrlar, qofiya, radif, obraz.*

Lirik sheʼr ijodkorning oniy tuygʻulari ifodasi ekan, demak, har bir lirik asar oʻziga xos betakrordir. Tashqi olamdan olgan taʼsiri asosida ijodkorning badiiy niyati, gʻoyasi, kayfiyati va holati u yoki bu shaklda yuzaga chiqadi. Shunday ekan, sheʼriyatda mazmunning yetakchi boʻlishi shart hisoblanadi. Adabiyotshunos A.Hayitmetov toʻgʻri taʼkidlaganidek: «Har qanday adabiy janr oʻzida ilgarigi qalamkashlarni adabiy tajribasini toʻplagan boʻlib, janr sohasidagi bu tajribadan har qanday ijodkor oʻz qobiliyati va maqsadidan kelib chiqib, oʻzicha foydalana oladi»¹. «Suvrati har qanday» boʻlsa-da, «nazmda maʼno»ning yetakchi boʻlishiga buyuk mutafakkir Alisher Navoiy oʻz asarlarida alohida eʼtibor qaratgan edi.

XVII-XVIII asr adabiy hayotda badiiy shakl va mazmun taraqqiyot yoʻlidan bordi, oʻtmish adabiyot anʼanalari oʻziga xos davom ettirildi. Adabiy turlardan lirikaning gʻazal, muxammas, musaddas, ruboiy, murabba janrlari yetakchilik qildi. Mumtoz sheʼriyatimiz shakllaridan foydalangan shoirlar bu janrlar mazmuni, xarakteri vazifasini oʻzgartirib bordilar.

Shoira Zebunnisobegim ham oʻz ijodi bilan boburiylar davri adabiyoti rivojiga salmoqli ulush qoʻshdi. Zebunnisobegim sheʼriyatining Lutfiy, Bedil, Sakkokiy, Atoyi, Alisher Navoiy, Bobur kabi adabiyotimiz namoyandalarining ijodiy maktabidan oziqlangani sezilib turadi. Shoira Zebunnisobegim asarlari oʻz davrining badiiy mahsuli boʻlib, uning ijodida original tashbeh, yorqin tasvir va oʻziga xos badiiy kayfiyat va lavhalar anchagina uchraydi.

Sharq shoirlarida boʻlgani kabi ishq-muhabbat mavzusining gʻazalda aks etishi

Zebunnisobegim sheʼriyati uchun ham xarakterlidir. Shoira ham qaysi janrda ijod qilmasin, badiiy niyati va gʻoyasini oʻziga qulay shaklda yuzaga chiqaradi. Zebunnisobegim mumtoz adabiyotning quyidagi janrlarida asarlar yaratdi:

1. Gʻazal, 2. Murabba, 3. Muxammas, 4. Ruboiy, 5. Musaddas, 6. Qasida, 7. Tarjeband, 8. Tarkibband.

Maʼlumki, gʻazal sharq adabiyotida yetakchi janrlardan boʻlib, uning asosiy mavzui ishq-muhabbatdir. XV asrda gʻazal janri Alisher Navoiy ijodi orqali yuksak choʻqqiga koʻtarilgan boʻlsa, XVIII asr ikkinchi yarmida ham rivojlanib yangi mazmun bilan boyidi. Gʻazalda anʼanaviy ishqiy mavzu bilan yonma-yon ijtimoiy-siyosiy mavzu ham keng ishlendi. Hajviy gʻazallarning koʻplab yozilishini Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Pisandiy, Gʻaribiy, Avaz Oʻtar, Nodim kabi shoirlar ijodidan misol keltirish mumkin. Zebunnisobegim ijodida lirik sheʼrlar bilan bir qatorda tasavvufiy mazmunga ega misralar ham koʻplab uchrab turadi. Tasavvuf gʻoyalarining ifodasida Yassaviy, Boqirgʻoniy, Bedil, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur kabilarning taʼsirini kuzatish mumkin.

Sharqshunos E.E.Bertels, tasavvuf adabiyotini oʻrganmay turib musulmon sharqi madaniy hayotini idrok qilish mushkul ekanini yozgan edi. XI-XV asrlarda yaratilgan tasavvufiy asarlardagidek soʻfiyona gʻoyalar keng aks etmasa-da, Zebunnisobegim tasavvufiy dunyoqarashini shu ohangdagi asarlari orqali belgilash mumkin.

Shoira ijodining xarakterli xususiyatlaridan biri sheʼrlarining markazida doimo yetuk, maʼnaviy boy inson qalbi turadi. Xoh ishqiy, xoh ijtimoiy, xoh diniy mavzuda boʻlsin, barcha asarlarida shoironing orzusi, istagi, umidi barkamol inson qiyofasini

¹Хайитметов А. Навоий лирики. — Т.: Фан, 1961. 34-Б.



ko'rmoqdir. Uning falsafiy dunyoqarashi bo'yicha qalbi muhabbatga oshno bo'lgan, ishqdan boxabar inson o'zini angelaydi, o'zligini topadi. Insoniy ishq kechinmalari, oshiq-ma'shuqlik munosabatlari shoiraning majoziy ishq haqidagi o'ylari va tuyg'ularini ifodalasa, «xudoga muhabbat», «mansur ishq», «nafsdan kechish» kabilar zikr etilgan o'rinlarda haqiqiy ishq talqin etiladi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy, majoziy ishq quyoshning tonggi nurlari bo'lsa, haqiqiy ishq shu quyoshning o'zidir, deb fikr bildiradi. Insonning insonga ishq haqiqiy ishqning bir juzvidir. Yoxud majoziy ishq inson ishqining ibtidosi bo'lsa, haqiqiy ishq intihodir. Adabiyotshunos Yo.Is'hoqov Alisher Navoiy asarlarida ishq masalasini tahlil qilar ekan, majoziy ishq haqiqiy ishqqa qarama-qarshi qo'yilmasligini ta'kidlab, shunday yozadi: «...majoziy ishq ishq haqiqiyning bir ko'rinishi yoki haqiqiy ishq yo'lidagi o'ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma'naviy komil inson uchun majozning o'zi ayni haqiqatdir»². Zebunnisobegim she'rlarida har ikki ishq talqin qilinib, shoira ishqning xosiyati, oshiqning ruhiy holati, ishq sababli qalb va ruhning kamolga erishuvi xususida ko'p to'xtaladi. Bunday asarlar markazida insonga ehtirom, uni ulug'lash g'oyasi turadi. Shoiraning muhabbat lirikasidagi yetakchi timsollar ham ishq, oshiq, ma'shuqa, raqibdir. Bu timsollar orqali shoira insoniy ishq kechinmalarini obrazli tasvirlaydi.

«Deb ayting» radifli g'azalida u saboga murojaat qilib, yorga o'z izhorlarini yetkazishni so'raydi:

Sabo, mundin borib mahbubima, ey yor, deb ayting,

Yo'lingda muhtaloyu senga arzi bor, deb ayting.

Saboga, tong nasimiga murojaat qilish mumtoz adabiyotimizda an'ana bo'lib, Xorazmiy, Navoiy, Bobur kabi shoirlar ijodida uchraydi. Ularda tong nasimi go'yo oshiq va yorning bir-biriga xabar keltiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy:

Ey sabo, holim borib sarvi gulandomimga ayt,

Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimga ayt.

Zebunnisobegim g'azalida «sabo» obrazi xabar eltuvchi vositagina emas, balki lirik qahramonning yaqin hamrozi sifatida namoyon bo'ladi.

Har qaysi ijodkorning zikr etilgan asarida oshiq holati va ma'shuqa go'zalligi tavsif qilinadi. Zebunnisobegim tahlilga tortilgan mazkur g'azali o'ziga xos voqeaband syujetga ega. Lirik qahramon oshiq g'am yutaverib, bag'ri pora-pora, afgor holda tasvirlanadi. U tong saharda sabo orqali yorga o'z holidan xabar yetkazmoqchi. Yordan lutfu marhamat kutgan oshiq mabodo rahm o'rniga jabru jafu ko'rsa, bu dunyoda yura olishi qiyinligini ta'kidlaydi.

Shoira tashbehdan foydalanib, xalqning jonli so'zlashuv tilidagi «boshiga osmon quladi» iborasini mahorat bilan qo'llaydi:

Jafoyu javr ila oshiq ishi munda o'tar bo'lsa,

Tushar boshiga go'yo gumbazi davvor, deb ayting.

Aylanib turuvchi falakning doimiy ishi lirik qahramonga jabr ko'rsatishdir. Yorga ushbu holatlarni bayon qilar ekan, lirik qahramon yorning kelishini iltimos qiladi, uning visolidan behad shod bo'lishini aytadi. Bu izhor, bayonlarni oshiq «muhabbatnoma» deb ataydi. G'azal syujetidan oshiq o'z holatini maktubga bitgani va uni sabo orqali yuborayotgani ma'lum bo'ladi. «Iqror xati»ni oshiq yordan tumordek asrashini so'rab murojaat qiladi. Xalqimizda tumor muqaddas bir buyum hisoblanadi. Shu ma'noda oshiqning xati mahbubaga muqaddas bo'lmog'i kerakligi quyidagicha tasvirlanadi:

Muhabbatnoma yozdi aylayub Zebunniso tavallolar,

Iloji bo'lsa qilgil bo'ymungga tummor, deb ayting.

Shoira yana boshqa bir g'azalida yor tasviri va oshiq holatini obrazli tasvirlar ekan, yorni «laylivash», «guluzor» deb ataydi. Uningcha, dashtu dalalardagi suvlar suv emas, oshiqning qonli ashkidir. Bunda shoira mubolag'a orqali tasvir kuchini yana ham oshiradi, ushbu g'azal tadrijida qizil rang

² Искоков Ё. Навоий поэтикаси. — Т.: Фан, 1983. 25-Б.



bilan bog'liq o'rinlarni alohida ta'kidlash mumkin:

Qizorgan gul emas har bog' aro bir gulsiton ichra,

Tunu kun yorni hajrida chashmi xunnisorimdur.

Ko'runsa shu laekim barq deb oni xayol etmang,

O't emas yashnagan jismimda, mavj urgan sharorimdur.

«Qizargan gul», «chashmi xunnisor», «ko'ksi dog'dor», «o't», «sharor» kabi sifatlashlar rang jihatidan mos bo'lib tanosub san'atini hosil qilyapti. G'azalda mazkur badiiy san'at shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini obrazli yuzaga chiqarishda asosiy usullardan biri hisoblanadi. Ishq alangasida o'rtangan oshiqning doimiy nasibasi g'am, makoni vayronalar, ulfati g'am, hatto xeshu tabori – avlod-ajdodlari ham kulfatdir. Shoira shunday tashbeh orqali oshiqning ruhiy ahvoli haqida so'z yuritadi.

Xalqimizda biror muhim gap, nasihat, o'gitni «qulog'ingga sirg'adek taqib ol» degan ibora bor. U shoira qalamida quyidagicha shakllangan:

Nasihat bergan erdi chiqma rahdin necha xo'blar,

Alar so'zi hamisha menga oltun gushvorimdur.

Xalq maqollari va iboralar muallifining fikrini o'xshatish, qiyoslash, xulosa qilish hamda obrazli ifoda asosida aks ettirish uchun muhimdir.

Yoru diyorsiz qolgan oshiq obrazi Bobur va Furqat ijodlari uchun xos bo'lsa, Zebunnisobegimning mazkur g'azali maqtasida lirik qahramonning o'z yurtida faqirligi, musofirligi ta'kidlanadi. Bu hol, ayni zamonda, shoira lirik she'rlarida ham ijtimoiy motivlarning sezilarli o'rnidan darak beradi:

Bu yerda Zebunniso ahqarning elga e'tibori yo'q,

Musofirdek yurarman munda, garchi o'z diyorimdur.

G'azalda shoira ixtiyori o'zida bo'lmagan xalqning fojiasini o'ziga xos aks ettirgandek tuyuladi bu misralarda.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, shoira lirikasida mahbub doimo ideal yor sifatida

tasvirlanadi. A.Xayitmetov «Navoiy lirikasi» asarida: «Shoir (Alisher Navoiy) yor obrazining g'oyaviy mohiyatini uning tashqi go'zalligi orqali ochishga intilishi»ni ta'kidlab, «yor obrazining birinchi spetsifik xususiyati va eng muhim tomoni uning go'zalligidir», deb yozadi³. Chindan ham bu ta'rif ko'pchilik shoirlar ijodiga muvofiq keladi.

Zebunnisobegim tasviridagi ma'shuqa ham zohiran, ham botinan go'zal. Uning benihoya kamoloti, tengsiz jamoli so'z orqali mahorat bilan tasvirlanadi, yorning siymosi o'quvchi ko'z o'ngida aniq gavdalanadi. Shoira yorning nafaqat zohiran go'zal bo'lishini, lutfi, suhbatlari dilbar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. «Qiynamang» radifli g'azalida ham ana shu masalalar ko'tariladi:

Qiyinalib jonim toza rahm aylangki, jono, qiynamang,

Avliyolarni haqi, ey majlisoro qiynamang (62b.) matlai bilan boshlanadigan ushbu g'azal o'zining ravonligi, o'ynoqiligi hamda ohori to'kilmagan radifi bilai ajralib turadi. Keyingi baytlarga esa ijtimoiy mazmundor fikrlar singdirib yuborilgan:

Bu zamon mardumlari bir-birga nayrangu firib,

Pesha solmay zulmni, aylang muvoso qiynamang (63 b.).

Shoira lirikasida an'anaviy oshiq, ma'shuqa timsollari bilan birga raqib timsoli ham o'ziga xos syujet manzarasi yaratishda muhim rol o'ynaydi. Nayrangboz, firibgar shaxslar oshiqning albatta ziddi, raqibi. Raqib mahbubaning yo'lini poylaydi, o'z firib tuzog'i bilan uni yo'ldan urmoqchi bo'ladi. Oshiqqa eltar yo'lining ustiga mudom tuzoq qo'yib kutadi:

Yo'l uzra qurmish davomat shum raqiblar domni,

Donasiga qilmayin bir zarra parvo, qiynamang (63 b.).

Zebunnisobegimning g'azal va muxammaslari, murabba va musaddaslari vazni, ohangi, radifi, uslubi jihatidan ham rang-barangdir. «Bu yerdadir» radifli g'azal o'zining musiqiyiligi, o'ynoqi ohangi bilan

³ Хайитметов А. Навоий лирикаси — Т.: Фан, 1961. 175-Б.



yengil o'qiladi. Tasvirlarning yorqin, uslubning soddaligi jihatidan xalq qo'shiqlari ruhiga yaqin bu g'azalning matlai quyidagicha:

Zulfi xalqa-xalqau ko'zi qaro bu yerdadir,

Boqishi shafqatliyu, nozik ado bu yerdadir.

Bir g'amza bila sen meni devona qilursan

Keyingi baytda ma'shuqaning kiprigi, qoshi tasvirlanadi ham «Karbalo» dashti voqeasi talmeh sifatida qo'llaniladi:

Kiprigi – xanjar, karashma – tig'u ko'z tashlash yashin,

Gar shahid bo'lmoqchi ersang, Karbalo bu yerdadir.

Mumtoz adabiyotda yor sochiniy sunbulga o'xshatilishi an'ana. Lekin, oshiqning ma'shuqani taroq (shona)dan rashk qilishi kamdan-kam shoirlarda uchraydigan lavhadir. She'ning keyingi baytida shoira o'zining tasavvufiy g'oyalarini ilgari suradi:

Bersa ham jannatni, aldanma kishilar so'ziga,

Bir qadam mayxonadan jilmaki, jo bu yerdadir.

G'azalning keyingi bayti mazmuni Alisher Navoiyning:

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay

bayti mazmuniga hamohangligini ko'rish mumkin:

Ka'baga bormoq na hojatdur, agar dil ovlasang,

Behuda yo'llar kezar bu xalqu, jo bu yerdadir.

Keyingi baytda yorning husn latofati boshdan oyoq tasviri beriladi:

Husniga boshdin-oyoq boqqanda har bir muqtadin,

Dilni tortib har karashma, derki: jo bu yerdadir.

Oshiq butun jahonni kezib, butun kitoblardan izlasa-da, oxir-oqibat axtarganini topadi:

Izladim bir-bir jahonda har necha bo'lsa kitob,

Ko'rdimu xattingni dedim: «Muddao bu yerdadir!».

Yorning jafjo'ligi, oshiqqa bemehrliqi g'azal so'ngida ta'kidlanadi. Ma'shuqa raqiblarni o'ziga suhbatdosh qiladi-yu, oshiqni esa begona hisoblashi aytiladi.

Istasang husning zakotini berarga mustahiq,

Kelki, bu Zebunniso yanglig' gado bu yerdadir.

«Yo'q» radifli g'azalini ham Zebunnisobegimning shakliy, badiiy izlanishlarining samarasi sifatida ko'rsatish mumkin. G'azal quyidagi matla bilan boshlanadi:

Yuzungni ko'rmasam, ey yor, meni bir dam qarorim yo'q,

Bo'lub rozi o'lumga, bu jahon ichra turorim yo'q.

Oshiq holati tasvirlangan ushbu g'azalda zulqofiyatayn, tazod san'atlari orqali shoirming g'oyaviy niyati poetik aks ettirilgan:

Ki xoh lutfu vafo qilg'ilki, xoh javru jafu qilg'il,

Boshim tandin judo qilg'ilki, sendin o'zga yorim yo'q.

Vafo, jafu so'zlari zid ma'noli bo'lib, tazod san'atini yuzaga chiqarmoqda, ayni vaqtda, bu so'z judo so'zi bilan birga misralararo kelib, ichki qofiyani yuzaga keltirgan. «Qilg'il» esa bayt misralaridagi ichki radifdir. Keyingi bayt misralari ichki qofiyalangan:

Menki qulingdur o'lguncha, o'lub tuproqqa botquncha,

Qiyomat tongi otquncha bu qulliqdin tonorim yo'q.

Zebunnisobegim lirikasining ham g'oyaviy, ham badiiy yetuk bo'lishida sharq mumtoz adabiyoti an'analari va xalq og'zaki ijodining roli muhim bo'lgan. O'tmish salafalar badiiyatiga xos ifoda usullari, uslub hamohangligi, badiiy g'oya va fikr yo'siniga xoslik kuzatiladi.

Lirik muxammaslarda shoiraning ma'shuqa timsolini aks ettirishida, uning tashqi qiyofasini batafsil tasvirlashda bu shakl Zebunnisobegim uchun ancha qulay imkonni beradi. Shoira«falak davrinda, jono...» deb boshlanadigan muxammasida yorni labi la'l, yuzi qizil gul, qoshlari hurlarnikidek, qaddi



suman, tani kumushdek, go'yo guldari kiyim
kiygan, beli nozik, ko'zi oshiqni o'ldiradigan
jallod, kipriklari o'q kabi tavsif qiladi:

*Falak davrinda, jono, ey pari, jism
ichra jonimsan,*

*Labi la'lu, yuzi gul, hurvash abru
kamonimsan,*

*Sumanbar, siymtan, gulpirahan,
nozukmiyonimsan,*

*Ko'zi jallodi oshiqkush, ajab
mujgonsinonimsan,*

*Qayu gulshan gulisan, yo huroni
jahonimsan?*

Ushbu muxammas yor tavsifi bilan boshlanib, birinchi va ikkinchi misralardagi sifatlarning uyushishi tansiq us-sifatni hosil qilgan. «Tansiq us-sifat uldurkim, bir nimani izma-iz kelgan bir necha sifat bila ta'bir qilurlar»⁴.

Beshinchi misrada shoira tajohulul-orif san'atini qo'llab, go'zal badiiy ifodaga erishgan. Tajohul-ul orif shunday san'atki, «so'zlaguvchi bir nimani bilur, ammo, bir nukta bila o'zni bilmagandek ko'rsatur». Bu o'rinda shoirning yordan kim ekanligini so'rashi tajohulul-orifdir.

Shoira yorni tavsif qilar ekan, tajohulul-orif san'atidan foydalanib, bu tavsiflarni ta'kidlaydi, yorning go'zalligiga kuchliroq urg'u beradi. Uning fikricha, ma'shuqa qanchalik go'zal bo'lmasin, oshiq uning yo'lida jon fido etmasin, u beparvo, bergan va'dasining ustidan chiqishi dargumon. Ma'shuqa goh sitam qiladi, goh mehribonlik qiladi. Zebunnisobegim ishqiy she'rlari uchun avval yorni tavsiflab, so'ng unga murojaat etish xarakterlidir.

Ma'shuqa timsoli tavsifi, oshiq holati bayoni va ishqning qudratini tavsiflash shoirning ko'pchilik lirik muxammas va g'azallari uchun xos. «Bo'lmasa» radifli lirik muxammasida shoira ushbu bayonlarni kengaytirib, sanobar qadli go'zal ma'shuqani bog'da uchratib qolish orzusi haqida bog'bonga qarata murojaat qiladi. Hazaji musammani mahzuf vaznida yozilgan ushbu

muxammasda oshiq ko'rinishi mubolag'ali tasvirlangan:

*Mavj urar xunoba ashkim ko'zlarim
daryosidin,*

*Jon qushi parvoz etarga qasd etar
ma'vosidin,*

*Ohkim, o'ldum go'zallar nozu
istig'nosidin,*

*Inqilob o'ldi ko'ngullar qoshining
ig'vosidin,*

*Tinchimas jonu ko'ngul bir sulhparvar
bo'lmasa (15-b).*

Jonning qushga o'xshatilishi va uning parvozga tayyor turgani o'ziga xos tashbeh bo'lib, oshiqning jonfidoligi, bezovta ruhiy holati tasvirlanadi.

Lirik she'rlar ichida Zebunnisobegimning Komron asarlari ruhida va uslubida yozilgan, qofiya va radifi ham aynan bo'lgan muxammas uchraydi. Aytish kerakki, davr adabiyotida nazira, tatabbu bitish an'ana edi. Zebunnisobegim «Aqlu hush uchti boshimdin, ey pari, devonaman» misrasi mazmunini birinchi misraga chiqarib, undagi mazmunni kuchaytiradi va yangi tafsilotlar bilan boyitadi:

*Sabru hushum ham ketibdur, telbaman,
devonaman,*

*Purziyolig' bobida sen sham'u men
parvonaman,*

*Bulmasal mashxuri xaloyiq, chug'zdek
vayronaman,*

*G'urbat ahlidin bo'lay desang yana
begonaman,*

*Bu jamoli nargisingdin o't bila
hamxonaman.*

Zebunnisobegim tasviridagi ma'shuqa-ni ko'zlari jallod, u oshiqning bor jahonini barbod qiladi. Uning kipriklari keskir shamshirga o'xshatilmoqda. Shoir timsollar yaratish va ifoda usullarini qo'llashda o'ziga xos yo'ldan boradi. Muqimiy g'azalida oshiq yoridan ayriliqda tasvirlanadi. Zebunnisobegimning mazkur g'azalida esa lirik qahramonning yor so'zlaridan ko'ngli quvnashi, demakki, u bilan ko'risha olgani tasvirlanadi.

⁴Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. — Т.: Фафур
Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981,
239-Б. 73-ўша асар, 132-Б.



Adabiyotlar:

1. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. — Т.: Фан, 1961, 34-Б.
2. Исҳоков Ё. Навоий поэтикаси. — Т.: Фан, 1983, 25-Б.
3. Ҳусайний А. Бадойи ус-санойиъ. — Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 239-Б.

Каримова С. Значимые образы в лирике Зебуннисобегим. В настоящей статье описываются любовные переживания человека, передающиеся в образах любви, влюблённого, любимой и любовного соперничества в лирике Зебуннисобегим. Интерпретируется тема любви в поэтических произведениях Зебуннисобегим и раскрываются особенности чувства любви, душевного состояния влюблённого человека и духовного совершенствования человека из-за любви.

Karimova S. Significant symbols in Zebunnisobegim's lyrics. The present article describes human's love-related sufferings that are transferred in the images of love, in-love person, beloved and love rivals in Zebunnisobegim's lyrics. The topic of love is interpreted in poetic works of Zebunnisobegim and peculiarities of love, psychic state of a person in love and spiritual development of a person because of love are disclosed.